

## ZAMONAVIY AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN TA`LIM TIZIMIDA FOYDALANISH IMKONIYATLARI

**Umarov Xusan Abduraximovich**

Ilmiy raxbar:

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti

Professional ta`lim metodikasi kafedrası v.b. dotsent, PhD.

**Xolmatova S.T**

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti

Professional ta`lim fakulteti talabasi:

### ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada ta`lim tizimida raqamli texnologiyalardan foydalanish, samaradorlikga erishish uchun raqamli texnologiyalarni qanday qo`llash mumkinligi atroflicha yoritib berilgan.

**Kalit so`zlar:** raqamli texnologiyalar, innovatsiya, virtual stend.

Ta`lim texnologiyalari doimo axborotli bo`lgan, chunki ular ko`p xil axborotni saqlash, uzatish, foydalanuvchiga yetkazib berish bilan bog`liq edi. Kompyuter texnikasi va kommunikatsiya vositalari paydo bo`lishi bilan o`qitish texnologiyalari tubdan o`zgardi. Ta`lim jarayonida axborot texnologiyalarini amalga oshirilishi quyidagilarning mavjud bo`lishini taqozo etadi:

- Ta`limning texnik vositalari sifatida kompyuterlar va kommunikatsiya vositalari;
- Ta`lim jarayonini tashkil etish uchun unga mos va tizimli va amaliy dastur ta`minoti;
- Ta`lim-tarbiya jarayonida yangi o`quv texnika vositalarini tadbiq etish bo`yicha mos metodik ishlanmalar.

**Ta’limning kompyuterli (axborot) texnologiyalari** – bu ta’lim oluvchiga axborotni tayyorlash va uzatish jarayoni bo’lib uni amalga oshirish vositasi kompyuterdir, ya’ni:

- O‘quvchi talabalarda axborot bilan ishlash maxoratini shakillantirish, kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirish;
- “axborotli jamiyat” shaxsini tayyorlash;
- ta’lim oluvchilarning o‘zlashtirish imkoni darajasidagi yetarli miqdorda axborot bilan ta’minlash;
- o‘quvchi-talabalarda tadqiqotchilik mahoratini, optimal qarorlar qabul qilish mahoratini shakillantirish.

Fan-texnika taraqqiyoti jadal sura’tlar bilan rivojlanib borgani sari axborot va axborot texnologiyalar tobora ko‘proq ilm va mexnat talab qiluvchi sharoitga aylanib bormoqda. Ta’lim jarayonlarini tashkil etishda informatsion texnologiyalardan foydalanish o‘quv jarayonini qiziqarli, sermazmun, samarali qilib o‘tkazish va dars jarayonini boshqarish imkoniyatini beradi. Ta’lim jarayonida maxsus, xususan kasbiy-mutaxassislik fanlarini o‘qitishda informatsion texnologiyalar imkoniyatlari (grafika, multimediya, animatsiya v.x.k.)dan foydalanish o‘quvchilarga shu fanni yanada mukammalroq, chuqurroq anglab yetish imkonini yaratadi, mavzu yuzasidan chuqur tasavvur uyg‘onishiga imkon yaratadi.

O‘qitishning yangi axborot texnologiyalari usuli o‘quvchi-talabani emas, u eng avvalo o‘qituvchi (pedagog)ning texnologiyasidir. O‘quvchi-talaba zamonaviy axborot texnologiyasini o‘rganmaydi balki uning mahsulotidan o‘qitishning texnik vositasi sifatida foydalanadi. O‘qituvchi (pedagog) zamonaviy texnologiyalarni qo‘llab darsga tayyorlanadi, darsni tashkil qiladi, o‘quvchi-talabalar bilimini nazorat qiladi, va ta’lim mazmunini takomillashtirishda eng yuqori darajasi yangi axborot texnologiyalarini ta’lim jarayoniga olib kirishdan iborat bo‘ladi, shu bilan bir qatorda ta’lim jarayonini boshqarish imkonini beradi.

Bu kabi o‘qitish vositalari kompleksidan foydalanilgan holda o‘quvchi-talabalarga ta’sir ko‘rsatish birgina axborot kanallari (ko‘rish, eshitish, h.k.) orqali amalga oshiriladi.

Ma’lumki, o‘qituvchi (pedagog)larning an’anaviy o‘qitish usulida laboratoriya va amaliy ishlar o‘tkazishlarga ko‘p vaqt ajratiladi. Bu mutaxassis tayyorlashning juda muhim tarkibiy qismidir. U nafaqat o‘quvchi talabani nazariy bilimlarini mustahkamlashga, o‘quv materialini o‘zlashtirish samarasini oshirishga, balki muayyan sohada amaliy ko‘nikmalarni hosil qilishga ham ko‘mak beradi.

Fanlarni o‘qitishda informatsion (inovatsion) texnologiyalardan foydalanishda nafaqat ta’lim jarayonini olib borish, balki, uning natijalarini ya’ni o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini baxolashda ham yuqori ko‘rsatkichlarga erishish mumkin. Bu usulni an’anaviy usul bilan qiyoslaganda juda ko‘p afzalliklari yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Shunday qilib, ta’lim jarayoniga zamonaviy axborot texnologiyalarining joriy etilishi quyidagilarga olib keladi: ta’lim jarayonini, o‘quvchilarning aniq tayyorgarlik darajasini, qobiliyatlarini, yangi materialni o‘zlashtirish sura’tini, qiziqish va mayllarni hisobga olib ko‘proq individual ravishda yordam berish; o‘quvchilarning bilish faoliyatini kuchaytirish, ularning ba’zi o‘zini o‘zi takomillashtirish, ta’lim va kasbga qiziqtirishni shakillantirishga intilishlarni qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirish; barcha ta’lim muassasalarida o‘qitishning muammoli va kompyuter vositalaridan hamda virtual stendlardan foydalanish; ta’lim jarayonining texnologik bazasini hozirgi zamon texnik vositalarini joriy etish yo‘li bilan takomillashtirish va boshqalar.

#### **ФЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ: (REFERENCES)**

1. ХА Умаров, ЗА Умарова / ["Использование электронно-образовательных ресурсов в целях создания образовательной экосистемы". Перспективные информационные технологии / Перспективные информационные технологии \(ПИТ 2018\) 2018](#)

2. ХА Умаров / [Развитие профессиональных компетенций будущих специалистов на основе академической мобильности](#) / Вопросы гуманитарных наук 2014
3. Zakhro Umarova / [Modern and Innovative Approaches to the Organization of Students's Self-Education in Higher Educational Institutions](#) / Journal La Edusci 2020/12/12
4. Zakhro Umarova / [Modern and Innovative Approaches to the Organization of Students's Self-Education in Higher Educational Institutions](#) / Journal La Edusci 2020/12/12
5. Умарова Ф.А., Умарова З.А., Умаров Х.А. “Scientific and practical bases of creation and use of electronic educational resources in educational process.” European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol.7 №. 12,2019. ISSN 2056-5852

